ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

5-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-son farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 24-martdagi, 93-son buyrug‘i 6**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “Ilg‘or va tajribali pedagoglar faoliyatini jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish hamda jamiyatda o‘qituvchi nufuzini yanada oshirishga qaratilgan turkum media mahsulotlar tayyorlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 28-martdagi, 96-son buyrug‘i 17**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Yosh qutqaruvchi”, “Yosh chegarachilar”, “Yosh gvardiyachi”, “Vatanparvarlar” hamda “Yashil chiroq” musobaqalarining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 28-martdagi, 101-son buyrug‘i ..22**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “Inson resurslarini rejalashtirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi **2025-yil 1-apreldagi, 103-son buyrug‘i** 24

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2**025-yil 10-apreldagi, 121-son buyrug‘i.....43**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgıning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni ijrosi haqida”gi **2025-yil 1-maydagi, 144-son buyrug‘i.....62**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgının “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2025-yil 2-maydagi, 146-son buyrug‘i.....94**

O‘zbekıston Respublıkası Maktabgacha va maktab ta’lımı vazırlıgının “Inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars beradigan pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish to‘g‘risida”gi **2025-yil 7-maydagi 478-son buyrug‘i.....99**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha va maktab ta’limi tizimida olib borilayotgan islohotlar, sohada joriy qilinayotgan yangiliklarni tahlil va targ‘ib etishda ommaviy axborot vositalari, xususan, bosma nashrlar muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi muassisligidagi **“Ma’rifat”, “Учитель Узбекистана”** gazetalari, **“Xalq ta’limi”, “Xalq ta’limi axborotnomasi”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Til va adabiyot ta’limi”** jurnallari tizimda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, sohaga oid yangiliklardan o‘qituvchi-pedagoglarni xabardor qilib borishda bevosita xizmat qilmoqda.

Shuningdek, o‘quvchilarning bilimi va tafakkurini oshirishga mo‘ljallangan **“Tong yulduzi”, “Knacc”** gazetalari, **“G‘uncha”, “Gulxan”** jurnallarini o‘quvchi-yoshlar orasida targ‘ib qilish, darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarida o‘qishlarini tashkil etish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllanishiga ko‘maklashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF - 134-son Farmonida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini yuqorida nomlari keltirilgan davriy bosma nashrlar bilan ta’minlash maqsadida mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda obuna ishlarini tashkil etish yuzasidan vazifalar belgilangan.

Shu munosabat bilan, **barcha hududiy bo‘linmalar rahbarlariga:**

tizimdagi barcha ta’lim muassasalarida **ushbu nashrlarni doimiy targ‘ibot** va **tashviqot ishlarini samarali tashkil etish**, ta’lim nashrlarida yoritiladigan mavzular dolzarbligini to‘g‘ri tu-

shuntirish;

barcha ta’lim muassasalarning kutubxona fondlariga 2026-yil uchun obuna tashkil qilish maqsadida **tegishli mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik**ni o‘rnatgan holda **mahalliy budjetlardan mablag‘ ajratilishi** yuzasidan tegishli choralarni ko‘rishingiz so‘raladi.

Tegishli mablag’lar ajratilmagan taqdirda ta’lim muassasalarida xodimlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalaridan pul yig‘ish, o‘qituvchilar oylik ish haqlaridan pullarni ushlab qolish va boshqa qonunchilikka zid bo‘lgan yo‘llar orqali ushbu obuna tadbirlarni amalga oshirish **ta’qiqlanadi.**

Mazkur vazifalarni sifatli bajarish hamda doimiy nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi **boshqarmalari boshliqlari zimmasiga yuklatiladi.**

Vazir o‘rinbosari **F. Boqiyev**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-mart-dagi F-18-son farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda to-morqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 6-martdagi F-18-son farmo-yishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

vazir o‘rinbosari S.Radjabov Qashqadaryo viloyati Koson tu-maniga, vazir o‘rinbosari T.Komilov Navoiy viloyati Navbahor tu-maniga biriktirilganligi;

mahallalarda mazkur farmoyish asosida ishlarni tashkil etish uchun har bir vazirlik va idoraga budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 3 milliard so‘mgacha qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 18-mart-dagi mr-34-son buyrug‘i 3-bandi ijrosi yuzasidan vazir o‘rinbosar-lari tomonidan o‘rganishlari davomida aniqlangan kamchiliklar asosida shakllantirilgan Qashqadaryo viloyati Koson tumanida hamda Navoiy viloyati Navbahor tumanida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining manzilli dasturlari hamda xarid qilinadigan zarur jihozlar va texnik vositalar ro‘yxati 1-6-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi kengashining 2025-yil 18-martdagi 55-son bayoniga muvofiq, Qashqadaryo viloyati Koson tumanida hamda Navoiy viloyati Navbahor tumanida joylashgan maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlariga qarashli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablariga xarid qilinadigan zarur jihozlar va texnik vositalar bilan bog‘liq xarajatlar jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinganligi ino-

batga olinsin.

4. AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) uch kun muddatda xarid qilinadigan kompyuter texnikalari va qo‘shimcha jihozlar bo‘yicha texnik topshiriqlarni ishlab chiqib “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga taqdim etsin.

5. “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi (A. Tursunov)ga:

mazkur buyruqning ilovalarida keltirilgan jihozlar va texnik vositalarni xarid qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar bo‘yicha vazirlikka talabnoma kiritish;

ajratilgan mablag‘lar doirasida qisqa muddatda qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini yetkazib berish va o‘rnatish ishlarini inobatga olgan holda amalga oshirish, bunda mebel, o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va zarur texnik vositalarni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 3- yanvardagi 1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan texnik talablarga muvofiq xarid qilish;

ajratilgan mablag‘larning sarflanishi bo‘yicha vazirlikning tegishli bo‘limlariga hisobotlarni taqdim etish hamda ajratilgan mablag‘lardan iqtisod qilingan qismini vazirlikning Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasiga qaytarilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I.Xoliqulov) “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq moliyalashtirish ishlarini amalga oshirsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov va S. Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 24-mart,
93-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining
2025-yil 24-martdagi 93-son buyrug‘iga
1-ilova

Navbahor tumanidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga xarid qilinadigan interaktiv doskalarning MANZILLI DASTURI

Nb	Tashkilot nomi	MFY nomi	Quvvati	Interaktiv doska soni
	Navbahor tumani		**1 940**	**16**
1	1-DMTT	Kuhron	140	1
2	2-DMTT	Keskanterak	140	1
3	3-DMTT	Qiziloy	120	1
4	4-DMTT	Armijon	140	1
5	5-DMTT	Arabsaroy	120	1
6	6-DMTT	Navkar	90	1
7	7-DMTT	Yangi yo‘l	120	1
8	8-DMTT	Mirzo O‘lug‘bek	140	1
9	9-DMTT	Qizilrabod	150	1
10	11-DMTT	Oq oltin	60	1
11	12-DMTT	Yangi yo‘l	120	1
12	13-DMTT	Yaltirabod	60	1
13	14-DMTT	Qorajon	150	1
14	15-DMTT	Uchtut	150	1
15	16-DMTT	Yosh kuch	120	1
16	17-DMTT	Qiziltepa	120	1

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining
2025-yil 24-martdagi
93-son buyrug‘iga
2-ilova

Navbahor tumanidagi umumta’lim maktablariga xarid qilinadigan mebel jihozlari, sport anjomlari va boshqa texnik vositalarning MANZILLI DASTURI

Jami		Hududlar nomi va muassasa raqami	Quv-vati	Xonadagi o‘quvchi-lar o‘rni	1^4 sinf xona-lari	5-11 sinf xona-lari	“Infor-matika va axbo-rot- tex-nologi-yalari” xonasi	Kutu-bxona	Jismoniy tarbiya xonasini uchun jihozlar	Sport zal 12x24
	7	**Tuman bo‘yicha**	**1 044**		**22**	**21**	**1**	**1**	**2**	**2**
		16 o‘quvchi o‘rinli	**464**		**14**	**15**	**1**	**0**	**2**	**2**
1	1	Navbahor tumani 9-son maktab	96	16	2	4				
2	2	Navbahor tumani 24-son maktab	96 (12x24)	16	4				1	1
3	3	Navbahor tumani 25-son maktab	192	16	4	5				
4	4	Navbahor tumani 30-son maktab	12x24	16					1	1
5	5	Navbahor tumani 33-son maktab	176	16	4	6	1			
		30 o‘quvchi o‘rinli	**580**		**8**	**6**	**0**	**1**	**0**	**0**
6	1	Navbahor tumani 2-son maktab	340	30	4	2		1		
7	2	Navbahor tumani 34-son maktab	240	30	4	4				

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’imi vazirining
2025-yil 24-martdagi
93-son buyrug‘iga
3-ilova

Navbahor tumanidagi umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga xarid qilinadigan mebel jihozlari, sport anjomlari va boshqa texnik vositalar RO‘YXATI

№	Jihozlar va sinf xonalar nomi	O‘lchov birligi	Jami soni:
	Umumta’lim maktablari:		
	Boshlang‘ich ta’lim xonalari uchun jihozlar (1–4-sinf)		**22**
1	Sinf doskasi	dona	22
2	O‘quvchi stoli N°3 (1 dona stol, 2 dona stul)	to‘plam	120
3	O‘quvchi stoli N°4 (1 dona stol, 2 dona stul)	to‘plam	112
4	O‘qituvchi stoli	dona	22
5	O‘qituvchi stuli	dona	22
6	Javon (kitoblar, o‘quv qurollari va anjomlari uchun)	dona	22
7	Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	dona	22
8	Kiyim javoni	dona	30
	5-11 sinf xonalari		**21**
1	Sinf doskasi	dona	21
2	O‘quvchi stoli N°5 (1 dona stol, 2 dona stul)	to’plam	108
3	O‘quvchi stoli N°6 (1 dona stol, 2 dona stul)	to’plam	102
4	O‘qituvchi stoli	dona	21
5	O‘qituvchi stuli	dona	21
6	Javon (kitoblar, o‘quv qurollari va anjomlari uchun)	dona	21
7	Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	dona	21
8	Kiyim javoni	dona	27
	“Informatika va axborot-texnologiyalari” xonasi uchun jihozlar:		**1**
1	O‘quvchi stoli N°5 (1 dona stol, 1 dona stul)	to‘plam	8
2	O‘quvchi stoli N°6 (1 dona stol, 1 dona stul)	to‘plam	8

3	O‘qituvchi uchun kompyuter stoli	dona	1
4	O‘qituvchi stuli	dona	1
5	O‘quvchi uchun kompyuter stoli va stuli (1 dona stol, 1 dona stul)	to‘plam	16
6	Javon (kitoblar, o‘quv qurollari va anjomlari uchun)	dona	1
7	Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	dona	1
8	Sinf doskasi	dona	1
	Kutubxona		**1**
1	Kitoblar uchun javon	dona	20
2	O‘quvchi stoli (1 dona stol, 1 dona stul)	to‘plam	10
3	Kafedra stoli (kitob tarqatish uchun)	dona	1
4	O‘qituvchi stuli	dona	1
	Jismoniy tarbiya xonasini uchun jihozlar		**2**
1	O‘qituvchi stoli	dona	2
2	O‘qituvchi stuli	dona	2
3	Kitob javoni	dona	2
4	Kiyim uchun javon (4 seksiyali)	to‘plam	8
	Sport zal uchun jihozlar		**2**
1	Dori qutisi	to‘plam	2
2	Gimnastik eshak	dona	2
3	Dastakli gimnastik eshak	dona	2
4	Tayanch sakrash uchun gimnastika eshagi	dona	2
5	Gimnastika o‘tirgich	dona	8
6	Tumik (perekladina)	to‘plam	2
7	Parallel brus	dona	2
8	Gimnastik to‘nka	dona	2
9	Yugurib kelib sakrash uchun ko‘prikcha	dona	2
10	Arqonli halqalar (gimnastik)	to‘plam	4
11	Lazaniya uchun arqon	dona	4
12	Shvedjavoni	dona	8
13	Gimnastik matras (to’shak)	dona	20
14	Turli xil gantellar:	juft	
14.1.	2kg	sht.	16
14.2.	4 kg	sht.	16

14.3.	6 kg	sht.	16
14.4.	8 kg	sht.	16
15	Gimnastik gardish	dona	30
16	Gimnastik tayoqlar	dona	30
17	Sekundomer	dona	4
18	Yengil atletika dastaklari	dona	4
19	Futbol to‘pi	dona	30
20	Basketbol to‘pi	dona	30
21	Voleybol to‘pi	dona	30
22	Gandbol to‘pi	dona	30
23	Voleybol ustunlari to‘ri bilan	to‘plam	4
24	Nasos	dona	6
25	Shaxmat soatlari	dona	8
26	Basketbol nishoni (halqa va to‘r bilan)	dona	4
27	Shaxmat	dona	8
28	Shashka	dona	8
29	Tennis stoli (raketka va to‘r bilan)	to‘plam	8
30	Stol tennisi to‘pi	dona	200
31	Armrestling uchun stol	dona	2
32	Tosh (8 kg, 16 kg – hab bir odamga)		
	8 kg	dona	6
	16 kg	dona	6
33	Yengil atletika uchun estafeta tayoqchalari	dona	30
34	Futbol darvozasi	to‘plam	2
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari		
1	Interaktiv doskalar	dona	16

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining
2025-yil 24-martdagi
95-son buyrug‘iga
4-ilova

Koson tumandagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga xarid qilinadigan jihozlarning MANZILLI DASTURI

№	Tashkilot nomi	MFY nomi	Quv-vati	Guruh xonasiga 2 qavatli divancha soni	Interaktiv doska soni	Muzlatgich soni	Duxovkali elektr pech soni (6 konfor)	Idish-tovoq (to‘plam)
Tuman bo‘yicha			**1 175**	**15**	**8**	**4**	**1**	**470**
1	5-DMTT	Nartichukur MFY	280		1			
2	22-DMTT	Lolazor MFY	220		1			
3	31 -DMTT	Yuqori obron MFY	175		1			90
4	33-DMTT	Sherbek MFY	80		1			80
5	38-DMTT	Nixol MFY	140	15	1	2	1	80
6	39-DMTT	Mudin MFY	80		1			80
7	40-DMTT	Sherbek MFY	80		1			80
8	42-DMTT	Shirentepa MFY	120		1	2		60

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining
2025-yil 24-martdagi
93-son buyrug‘iga
5-ilova

Koson tumanidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga xarid qilinadigan jihozlar va boshqa texnik vositalarining MANZILLI DASTURI

Jami	T/r	Hudud nomi va muassasa raqami	Quvvati	5-11 sinf xonalari	“Informatika va axborot-texnologiya” xonasi uchun 3D printer	Sinf yozuv doskasi soni	Relin (Pol uchun qoplama) kv.m	Ingliz tili xonisi uchun kompyuterlar soni	Ingliz tili xonisi uchun printerlar soni	Interaktiv doska soni
		Tuman bo‘yicha	**7 074**	**8**	**1**	**18**	**4 040**	**11**	**11**	**15**
		16 o‘quvchi o‘rinli	**160**					**1**	**1**	**1**
1	1	Koson tumani 79-son maktab	160					1	1	1
		30 o‘quvchi o‘rinli	**6 914**	**8**	**1**	**18**	**4 040**	**10**	**10**	**14**
2	1	Koson tumani 17-sonmaktab	624			10	2 100	1	1	1
3	2	Koson tumani 38-son maktab	480	5				1	1	1
4	3	Koson tumani 76-son maktab	560					1	1	1
5	4	Koson tumani 77-son maktab	950					1	1	1
6	5	Koson tumani 83-son maktab	315			4		1	1	1

7	6	Koson tumani 86-son maktab	220					1	1	1
8	7	Koson tumani 89-son maktab	320				280	1	1	1
9	8	Koson tumani 97-son maktab	540	3				1	1	1
10	9	Koson tumani 100-son maktab	330		1	4				1
11	10	Koson tumani 3-son maktab	625				1300	1	1	1
12	11	Koson tumani 98-son maktab	300				360	1	1	1
13	12	Koson tumani 6-son maktab	840							1
14	13	Koson tumani 80-son maktab	490							1
15	14	Koson tumani 87-son maktab	320							1

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 24-martdagi 93-son buyrug‘iga
6-ilova

Koson tumanidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga xarid qilinadigan jihozlar va boshqa texnik vositalar RO‘YXATI

№	Jihozlar va sinf xonalar nomi	O‘lchov birligi	Jami soni
	Umumta’lim maktablari		
	5-11 sinf xonalari		**8**
1	Sinf doskasi	dona	8
2	O‘quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul)	to‘plam	64
3	O‘quvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul)	to‘plam	56
4	O‘qituvchi stoli	dona	8
5	O‘qituvchi stuli	dona	8
6	Javon (kitoblar, o‘quv qurollari va anjomlari uchun)	dona	8
7	Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	dona	8
8	Kiyim javoni	dona	16
	Maktablar uchun yozuv doska		
1	Sinf doskasi	dona	18
	Maktablar uchun elektron doska		
1	Interaktiv doska	dona	15
	Informatika xonasi		8
1	“Informatika va axborot-texnologiya” xonasi uchun 3D printer	dona	1
	Ingliz tili xonasi		
1	Ingliz tili xonisi uchun kompyuterlar	to‘plam	11
2	Ingliz tili xonisi uchun printerlar	to’plam	11
	Maktab poli uchun		
1	Relin	m2	4 040
	Maktabgacha ta’lim tashkiloti		
1	Guruh xonasi uchun 2 qavatli divancha	dona	15
2	Interaktiv doska	dona	8
3	Muzlatgich	dona	4
4	Duxovkali elektr pechi (6 konfor)	dona	1
5	Idish-tovoqlar to‘plam	to‘plam	470

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ilg‘or va tajribali pedagoglar faoliyatini jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish hamda jamiyatda o‘qituvchi nufuzini yanada oshirishga qaratilgan turkum media mahsulotlar tayyorlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi pedagog kadrlar faoliyatini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilishga qaratilgan “Ta’lim yulduzlari” nomli loyiha (keyingi o‘rinlarda - Loyiha) asosida turkum media mahsulotlar yaratish yuzasidan taklifi ma’qullansin.

2. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2025-yil 27-martdagi 56-sonli bayonida video materiallar tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha tegishli qarori qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

loyihani muvofiqlashtirish, oraliq va yakuniy hisobotlarini qabul qilish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - Ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan faxrli o‘qituvchilar, tarbiyachilar va namunali o‘quvchilar haqida media mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha texnik topshiriq 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga:

media mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha tasdiqlangan texnik topshiriqlarga asosan bajariladigan ishlar, xizmatlarning bugungi kundagi bozor narxlarini o‘rganish;

media mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari

to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirsin;

media mahsulotlarni yuqori saviyada tayyorlash va tashkiliy masalalarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

loyiha bo‘yicha belgilangan ishlarni yakunlash hamda oraliq hisobotlarni Ishchi guruhga o‘z vaqtida topshirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Ishchi guruhga:

loyiha bo‘yicha belgilangan ishlarni tegishli muddatda, tasdiqlangan texnik topshiriqlar talablari asosida bajarilishi hamda oraliq va yakuniy hisobotlarni o‘z vaqtida topshirilishini nazorat qilish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan oraliq va yakuniy hisobotlarni belgilangan tartibga muvofiq dalolatnoma asosida qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I.Xoliqulov) A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) “Ta’lim yulduzlari” loyihasi asosida tayyorlangan video materiallarni vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borsin.

8. Devonxona (X. Rahimbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 28-mart,
96-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 28-martdagi
96-son buyrug‘iga
1-ILOVA

“Ta’lim yulduzlari” loyihasini muvofiqlashtirish, oraliq va yakuniy hisobotlarini qabul qilish bo‘yicha ishchi guruh TARKIBI*

T/r	F.I.SH.		Lavozimi
1.	A.Turdiyev		Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining maslahatchisi, *ishchi guruh rahbari*
2.	D. Sobirova	-	Axborot xizmati rahbari, *ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
3.	O. Abbasov	-	Yangi O‘zbekiston universitetining Multimedia markazi fotografi, *a’zo*

Izoh: *Ishchi guruh a’zolari o‘zlariga tegishli bo‘lgan loyiha (xizmat) uchun mas’uldirlar.

Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 28-martdagi 96-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan faxrli o‘qituvchilar, tarbiyachilar va namunali o‘quvchilar haqida ijtimoiy roliklar tayyorlash bo‘yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ

T/r	Ko‘rsatiladigan xizmatlar nomi	O‘lchov birligi	Soni	Texnik topshiriq
1.	Respublikamiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan faxrli o‘qituvchilar, tarbiyachilar va namunali o‘quvchilar haqida ijtimoiy roliklar tayyorlash	xizmat	10	1.1. Respublikamiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ta’lim fidoyilari haqidagi ijtimoiy roliklarni butun Respublika bo‘ylab (zarurat bo’lsa, eng chekka hududlarga borib) tasvirga olish; 1.2. Ijtimoiy roliklar uchun tanlangan mavzularning yangiligi va dolzarbligiga e’tibor qaratish; 1.3. Har bir ijtimoiy rolikni ishlab chiqarish jarayonida ta’lim yo‘nalishidagi tajribali ekspertlar bilan maslahatlashish; 1.4. Badiiy yo‘nalishdagi ijtimoiy roliklarga tajribali aktyor va aktrisalarni jalb qilish; 1.5. Qahramonlar haqidagi roliklarni sifatli montaj qilish va zamonaviy dasturlar yordamida bo‘yash; 1.6. Ijtimoiy roliklarga musiqa tanlashda mualliflik huquqlariga amal qilish; 1.7. Montaj, ovoz yozish va texnik ishlar uchun tajribali va malakali xodimlardan foydalanish; 1.8. Tayyor roliklarni talab qilingan formatlarda (FullHD, MP4, Reels) belgilangan muddat ichida topshirish; 1.9. Ijtimoiy roliklar mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra 2-5 daqiqa atrofida bo‘lishi talab etiladi; 1.10. Zarurat bo’lgan ijtimoiy roliklarga rus tilidagi subtitrlar qo’yish; 1.11. Zarurat bo‘lgan ijtimoiy roliklarda surdo tarjimonlardan foydalanish.

2.	Maktab ta'limidagi faol, namunali va yuqori natijalar qayd etgan o'quvchilar haqida ijtimoiy roliklar tayyorlash	xizmat	10		2.1. Maktab ta'limidagi faol, namunali va yuqori natijalar qayd etgan o'quvchilar haqida ijtimoiy roliklarni Respublikamiz hududlari miqyosida tasvirga olish; 2.2. Ijtimoiy roliklar uchun tanlangan mavzulaming yangiligi va dolzarbligiga e'tibor qaratish; 2.3. Har bir ijtimoiy rolikni ishlab chiqarish jarayonida ta'lim yo'nalishidagi tajribali ekspertlar bilan maslahatlashish; 2.4. Badiiy yo'nalishdagi ijtimoiy roliklarga tajribali aktyor va aktrisalarni jalb qilish; 2.5. Qahramonlar haqidagi roliklami sifatli montaj qilish va zamonaviy dasturlar yordamida bo'yash; 2.6. Ijtimoiy roliklarga musiqa tanlashda mualliflik huquqlariga amal qilish; 2.7. Montaj, ovoz yozish va texnik ishlar uchun tajribali va malakali xodimlardan foydalanish; 2.8. Tayyor roliklarni talab qilingan formatlarda (FullHD, MP4, Reels) belgilangan muddat ichida topshirish; 2.9. Ijtimoiy roliklar mazmuni va yo'nalishiga ko'ra 2-5 daqiqa atrofida bo'lishi talab etiladi; 2.10. Zamrat bo'lgan ijtimoiy roliklarga ms tilidagi subtitrlar qo'yish; 2,11, Zamrat bo'lgan ijtimoiy roliklarda surdo-tarjimonlardan foydalanish.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Yosh qutqaruvchi”, “Yosh chegarachilar”, “Yosh gvardiyachi”, “Vatanparvarlar” hamda “Yashil chiroq” musobaqalarining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori bilan tasdiqlangan O‘quvchilarda Vatan himoyachisi bo‘lishga mehr va havas uyg‘otish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining 6-bandida berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. “Yosh qutqaruvchi”, “Yosh chegarachilar”, “Yosh gvardiyachi”, “Vatanparvarlar” hamda “Yashil chiroq” musobaqalarining (keyingi o‘rinlarda - musobaqalar) respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash bilan bog‘liq sarf- xarajatlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga musobaqalarning respublika bosqichida ishtirok etadigan o‘quvchilar va ularga biriktirilgan mas’ullarning xavfsizligini ta’minlagan holda musobaqa o‘tkaziladigan joyga kelib-ketishlarini tashkil etish va ularning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur buyruq ilovasida ko‘rsatilgan sarf-xarajatlar vazirlikning 2025-yilgi markazlashgan tadbirlar bo‘yicha xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilansin.

4. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlarga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalar G‘aznachilik xizmati qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limi (U.Davronov) xarid qilingan tovar va xizmatlarni qabul qilinishi va sarflanishi uchun mas’ul etib belgilansin va o‘n kun muddatda musobaqalar yakunlari bo‘yicha hisobotlarni Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga taqdim etsin.

7. Musobaqalarning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimlarini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasining tegishli xodimlari bilan hamkorlik qilish uchun Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi Axmadaliyev Elmurod Raxmat o‘g‘li mas’ul etib belgilansin hamda musobaqalarning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash uchun xizmat safariga yuborilsin.

8. Xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanishi ta’minlansin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) musobaqalarning respublika bosqichi taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

10. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalariga yetkazsin.

11. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh,
2025-yil 28-mart,
101-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Inson resurslarini rejalashtirish tizimini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyati samaradorligini oshirish, vazirlikka yuklatilgan vazifa va funksiyalarning samarali bajarilishini ta’minlashga layoqatli bo‘lgan inson resurslarining son va sifat tarkibini shakllantirish hamda doimiy rivojlantirib borish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish bo‘yicha nazorat rejasi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Markaziy apparatning barcha bo‘linma rahbarlari zimmasiga quyidagilar yuklatilsin:

vazirlikning maqsad, vazifa va funksiyalarini tahlil qilish;

har bir funksiyani samarali amalga oshirish bo‘yicha inson resurslari son va sifat tarkibiga bo‘lgan talabni aniqlash;

Yo‘riqnomaning 2-ilovasidagi so‘rovnoma shakllarini o‘z vaqtida va sifatli to‘ldirilishi bo‘yicha mas’uliyat bilan yondashish;

inson resurslarining son va sifat tarkibiga bo‘lgan ehtiyojni qondirish usullari va amaliy chora-tadbirlarni belgilash hamda monitoring olib borsin.

3. Ishchi guruhga **joriy yilning 18 aprel kuniga qadar** Yo‘riqnomaning 2-ilovasidagi so‘rovnoma shakllari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlarni va boshqa tahliliy takliflarni ko‘rib chiqish hamda vazirlikning Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov):

joriy yilning 25 aprel kuniga qadar Markaziy apparat bo‘linmalari bilan birgalikda Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasini tasdiqlashga kiritsin;

joriy yilning 1 may kuniga qadar tasdiqlangan Yillik rejani hamda tegishli tahliliy ma’lumotlarni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga yuborsin;

joriy yilning 20 dekabr kuniga qadar 2025-yil yakunlari bo‘yicha Yillik rejaning ijrosi bo‘yicha ma’lumotlarni hamda 2026-yil uchun Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasini ishlab chiqib, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga yuborsin.

4. Devonxona (X.Raximboyeva) ushbu buyruq markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari va tizimdagi tegishli tashkilotlarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 1-aprel,
103-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligining 2025-yil 1-apreldagi
103-son buyrug‘iga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma) **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining** faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida inson resurslarini rejalashtirishni tashkillashtirish yuzasidan tavsiyalarni belgilaydi.

2. Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

davlat organi – respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari;

inson resurslari – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining vazifa va funksiyalarini amalga oshirilishini ta’minlovchi davlat fuqarolik xizmatchilari hamda jalb qilingan mutaxassis (ekspert)larining **soni va sifat tarkibi**, shu jumladan, ularning kasbiy kompetensiyalari, tajribasi va o‘zini-o‘zi doimiy rivojlantirib borishga layoqati;

inson resurslarini rejalashtirish – tegishli davrda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni samarali bajarilishini ta’minlashga layoqatli bo‘lgan inson resurslarining son va sifat tarkibini shakllantirish hamda doimiy rivojlantirib borishga qaratilgan faoliyat.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

mavjud inson resurslarining son va sifat tarkibini o‘rganish hamda davlat organining maqsad, vazifa va funksiyalarini tahlil qilgan holda ularga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash;

inson resurslarining son va sifat tarkibiga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bo‘yicha yillik reja ishlab chiqish;

Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasi ijrosining monitoringini olib borish va baholash jarayonini tashkil etish.

4. Inson resurslarini rejalashtirish jarayoni 1-ilovadagi sxemaga muvofiq tashkil etilib, tashkilotning inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5. Inson resurslarini rejalashtirish tegishli hisob-kitoblar hamda tahlillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

2-bob. Mavjud inson resurslarining son va sifat tarkibini o‘rganish hamda davlat organining maqsad, vazifa va funksiyalarini tahlil qilgan holda ularga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash

6. Inson resurslarining son va sifat tarkibi (markaziy apparat, tarkibiy va hududiy bo‘linmalar kesimida) o‘rganish Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining barcha mustaqil bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilib, inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga umumlashtirish uchun taqdim etiladi.

Bunda quyidagilar:

xodimlarning soni (yosh tarkibi, gender, ma’lumoti va h.k.);

xodimlarning qo‘nimsiziligi darajasi va sabablari hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining faoliyati samaradorligiga ta’siri;

ish hajmining xodimlarga taqsimoti (ish hajmining ish vaqtiga mutanosibligi);

ish vaqtidan tashqari bajarilayotgan, shuningdek, lavozim vazifalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimcha ishlar hajmi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining maqsadidan kelib chiqib, u tomonidan joriy yilda hamda kelgusi davrda amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalari, bekor bo‘ladigan hamda qo‘shilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) yangi vazifa va funksiyalar ro‘yxati shakllantiriladi;

mamlakat, hudud, sohaga oid ichki va tashqi tahdidlar (omillar), raqamlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish imkoniyatlari, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar tahlili amalga oshiriladi;

kelgusidagi funksiyalar ro‘yxati va kutilmalar tahlili asosida tarkibiy tuzilmalar va mavjud mutaxassisliklarning o‘zgarishi (tugatilishi, moslashtirilishi) hamda yangi tarkibiy tuzilmalar va ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislarga ehtiyoj shakllantiriladi;

yangi mutaxassisliklar bo‘yicha lavozimlarning “mehnat bozoridagi narxi”ni aniqlash va ularni jalb etish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining moliyaviy va boshqa imkoniyatlari aniqlanadi;

lavozimda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ish haqi, yaratilayotgan shart-sharoitlar, ijtimoiy himoya vositalarining mehnat bozorida (soha va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda) raqobatbardoshligi;

lavozimda samarali faoliyat olib borishi uchun xodimlarning malakasi, bilimi va ko‘nikmalari darajasi yetarliligi;

mavjud mutaxassislarni qayta tayyorlash va yangi ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislarni yetishtirib chiqarish bo‘yicha mamlakatdagi va xorijdagi imkoniyatlar o‘rganiladi.

Tahlil natijalari bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda takliflar ishlab chiqiladi:

funksiyalarni samarali amalga oshirilishi yuzasidan tashkiliy tuzilmani takomillashtirish (optimallashtirish, qisqartirish, birlashtirish, qayta tuzish, yangi tashkil etish);

mavjud inson resurslarining oqilona taqsimlash hamda inson resurslariga oid ehtiyojlarni ishlab chiqish;

qo‘shimcha shtatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish;

lavozimlarni tegishli malaka talablariga javob beradigan xodimlar bilan ta’minlashga oid choralarni belgilash (mavjud xodimlarning malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi xodimlarni jalb qilish);

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ish haqi, karera qilish imkoniyatlari va mehnat sharoitlari jozibadorligini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish.

7. Bo‘linmalar o‘rganish natijalari asosida mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasida keltirilgan shaklga asosan ma’lumotlarni to‘ldiradi.

8. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi mazkur Yo‘riqnomaning 3-ilovasida keltirilgan shaklga asosan bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni umumlashtiradi.

3-bob. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasini ishlab chiqish

9. Tahlillar va ishlab chiqilgan takliflar asosida inson resursla-

rini rivojlantirish boshqarmasi Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasi loyihasini (keyingi o‘rinlarda – Yillik reja) ishlab chiqib, rahbarga tasdiqlash uchun kiritadi.

10. Yillik rejada quyidagilar nazarda tutiladi:

a) inson resurslarga bo‘lgan ehtiyojni baholash natijalari:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mavjud inson resurslari holati (son va sifat tarkibi, bo‘linmalar o‘rtasidagi taqsimoti va h.k.);

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ustuvor vazifalarini samarali bajarish uchun kerak bo‘lgan hamda kelgusidagi ehtiyojlardan kelib chiqib xodimlar soni va ularning bilim va ko‘nikmalaridagi bo‘shliqlarni baholash natijalari;

b) inson resurslarining tahlili natijalari:

mavjud inson resurslarning kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash;

ish kuchiga bo‘lgan talab (davlat organining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xodimlarga bo‘lgan ehtiyoj) hamda ularni ushlab qolish muammolari va qo‘nimsizlik darajasini baholash;

birinchi navbatda hal qilish kerak bo‘lgan eng muhim masalalarni ketma-ketlik asosida aniqlash;

d) inson resurslaridagi strategik ustuvorliklarni belgilash:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ko‘p yillik strategiyasidan kelib chiqib, inson resurslarga nisbatan aniq maqsadlarni belgilash;

chora-tadbirlarni belgilash (qo‘shimcha shtatlar soni, rotatsiya, mobillik, rezerv, salohiyatni oshirish, xodimlarni tashqaridan jalb etish va h.k.);

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining samaradorligini oshirish maqsadida rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha rejalar;

e) Yillik rejani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini (keyingi o‘rinlarda – Chora-tadbirlar dasturi) ishlab chiqish:

Chora-tadbirlar dasturi har bir bandida chora-tadbir nomi, amalga oshirish mexanizmi, muddati, moliyalashtirish manbalari hamda mas’ullar aniq belgilanadi;

f) Yillik reja monitoringi va baholash uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) belgilash:

aniqlangan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirilishi jarayonini baholash uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash (va-

kant va yangi shtatlarni malakali xodimlar bilan to‘ldirish, o‘qitish, ushlab qolish, qo‘nimsizlik va h.k.)

belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilishi bo‘yicha monitoringni olib borish;

moliyaviy resurslar va xodimlar yetishmasligi kabi muammolarni yechish bo‘yicha xavfni boshqarish chora-tadbirlari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

g) Yillik rejani amalga oshirish uchun moliyaviy hisob-kitobi:

Chora-tadbirlar dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar hisob-kitobi;

xodimlar salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ichki va tashqi manbalarni aniqlash;

inson resurslarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni sifatli o‘tkazishda iqtisodiy samaradorligini ta’minlash.

11. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining inson resurslarini rivojlantirishga mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi:

Yillik rejani hamda uni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tarkibiy tuzilmalar bilan kelishgan holda rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritadi;

ijrosi ustidan monitoring olib boradi hamda davlat organining kengaytirilgan yig‘ilishlarida muhokamasini tashkillashtiradi;

tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilmalar bilan doimiy qayta aloqa olib borish orqali zaruratga ko‘ra Maktabgacha va maktab ta’limi vaziriga Yillik reja yoki Chora-tadbirlar dasturiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish bo‘yicha takliflar kiritadi.

4-bob. Yillik reja ijrosining monitoringini olib borish va baholash jarayonini tashkil etish

12. Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida monitoring va baholash o‘tkaziladi.

13. Monitoring va baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

hisobdorlikni ta’minlash – Yillik rejada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi bo‘yicha mas’ul ijrochilarni va ularning hisobdorligini belgilash;

jarayonlarni kuzatish – Yillik rejadagi tadbirlarning o‘z vaqtida

hamda mazkur Yo‘riqnomada belgilangan tartibga asosan olib borilishini baholash;

samaradorligini baholash – Yillik rejada belgilangan ustuvor vazifalar samarali bajarilish holatini (son va sifat ko‘rsatkichlari asosida) o‘rganish;

monitoring natijalariga asoslangan holda zaruriyatga ko‘ra Yillik rejaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (masalan resurslarni qayta taqsimlash, ustuvor vazifalarni o‘zgartirish va h.k.).

14. Monitoring va baholash aniq, o‘lchanadigan, erishish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarga asoslanib olib boriladi. Masalan:

tanlov ko‘rsatkichlari – vakansiyaning yopilish muddati, vakansiyalarning ulushi va h.k.;

salohiyatni oshirish samaradorligi – o‘qitish dasturlarni tugatgan xodimlar ulushi, o‘qitishning faoliyatiga bo‘lgan ta’siri (unumdorlik darajasi yaxshilanishi) va h.k.;

ushlab qolish ko‘rsatkichlari – qo‘nimsizlik darajasining pasayish ko‘rsatkichi, muhim lavozimlarda ushlab qolish darajasi (masalan, muhim lavozimlarda 90%gacha ushlab qolish);

rejaning amaliyotga to‘liq joriy etilishi bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari (masalan, Yillik rejadagi tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishi, aniqlangan ish kuchiga bo‘lgan ehtiyojni qondirilishi, muhim lavozimlarni 100 foiz to‘ldirilishi va h.k.).

15. Yillik rejadagi chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan har oyda mas’ul ijrochilardan tegishli ma’lumotlar umumlashtirilib, Yillik rejani amalga oshirilishi yuzasidan hisobot shakllantiriladi.

16. Monitoring natijasi bo‘yicha shakllantirilgan hisobot Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining bo‘linmalari bilan birgalikda ko‘rib chiqilib, rahbariyatga kiritiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

17. Inson resurslarini rejalashtirishda amaldagi qonunchilikda belgilangan shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash tartibiga rioya qilinishi shart.

18. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligidagi inson resurslarini rejalashtirishda mazkur Yo‘riqnoma uslubiy qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 1-apreldagi 103-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida Inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI

1.	Sh.Karimov	-	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbari
2.	F.Boqiyev	-	Vazir o‘rinbosari
3.	T.Komilov	-	Vazir o‘rinbosari
4.	S.Radjabov	-	Vazir o‘rinbosari
5.	A.Turdiyev	-	Vazir maslahatchisi
6.	I.Sharipov	-	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
7.	Sh.Mamadiyarov	-	Yuridik boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
8.	F.I.SH	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo‘limi boshlig‘i
9.	O.Hoshimov	-	Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti direktori
10.	I.Siradjev	-	Moliya-iqtisod departamenti direktori
11.	O.Raxmatullayev	-	Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
12.	K.Bekturdiyev	-	Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi boshlig‘i
13.	E.Murodov	-	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
14.	M.Yuldashev	-	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
15.	S.Raximboyev		Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish va kasbiy sertifikatlash boshqarmasi boshlig‘i
16.	R.Musurmonov	-	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

17.	X.Xusanov	-	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

Izoh:

Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda Ishchi guruh tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 1-apreldagi 103-son buyrug‘iga
3-ilova

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish bo‘yicha
NAZORAT REJASI

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
1.	Inson resurslarini rejalashtirishni tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tuzish.	2025-yil 1-aprel	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi va barcha tarkibiy bo‘linmalar
2.	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha namunaviy jadvallarni to‘ldirib, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etish.	2025-yil 18-aprel	Ishchi guruh, Departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari
3.	Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslangan holda tahliliy ma’lumotlarni umumlashtirish.	2025-yil 25-aprel	Ishchi guruh, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga
4.	Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan yig‘ib olingan tahliliy ma’lumotlarni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taqdim etish.	2025-yil 1-may	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga
5.	Umumlashtirilgan natijalar asosida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan taqdim etilgan namunaga asosan Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasini tayyorlash va tarkibiy tuzilmalar bilan kelishilgan holda rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritish.	2025-yil 28-aprel	Ishchi guruh, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Departament, boshqarma, bo‘lim boshliqlari
6.	Yillik rejani Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taqdim etish.	2025-yil 1-may	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
7.	Tasdiqlangan Yillik rejaning monitoringi uchun hisobot taqdim etish.	har oyning 5-sanasigacha	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi
8.	Yillik rejaning monitoringi hamda chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi holati baholanishi natijalari bo'yicha rahbariyatga hisobot kiritish	har oyning 10-sanasigacha	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi
9.	Vazirlikda inson resurslarini rejalashtirish yo'l xaritasi ijrosi bo'yicha monitoring olib borish, vazirlikning kengaytirilgan yig'ilishlarida muhokamasini tashkillashtirish, zaruratga ko'ra yo'l xaritasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha vazirlik rahbariga takliflar kiritish	Doimiy	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida
inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha
yo‘riqnomaga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida inson resurslarini rejalashtirishni tashkil etish SXEMASI

Bosqich-lar	Mas’ullar	Chora-tadbirlar	Muddat-lar*
1-bos-qich	Inson resurslarini rivojlantirish bosh-qarmasi	Vazirlikni tarkibiy bo‘linmalari uchun Inson resurslari rejalashtirishni tashkil etish bo‘yicha tushuntirishlar berish	3 ish kuni mobaynida
2-bos-qich	Tarkibiy tuzilmalar rahbarlari	Mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq berilgan jadvallarni to‘ldirib, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etish	10 ish kuni
3-bos-qich	Inson resurslarini rivojlantirish bosh-qarmasi	Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan olingan ma’lumotlarga asoslangan holda mazkur Yo‘riqnomaning 3-ilo-vasidagi shakldagi jadvalni to‘ldirish	7 ish kuni
4-bos-qich	Inson resurslarini rivojlantirish bosh-qarmasi	Jadvallar asosida mazkur Yo‘riqno-maning 4-ilovasiga asosan Inson resurslarini rejalashtirishning yillik rejasini tayyorlash va tarkibiy tuzil-malar bilan kelishilgan holda rahba-riyatga tasdiqlash uchun kiritish	7 ish kuni
5-bos-qich	Tarkibiy tuzilmalar rahbarlari	Tasdiqlangan Yillik rejaning monito-ringi uchun hisobot taqdim etish	har oyning 5-sanasi-gacha
6-bos-qich	Inson resurslarini rivojlantirish bosh-qarmasi	Yillik rejaning monitoringi hamda chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi holati baholanishi natija-lari bo‘yicha rahbariyatga hisobot kiritish	har oyning 10-sanasi-gacha
7-bos-qich	Inson resurslarini rivojlantirish bosh-qarmasi	Yillik rejaga zaruratga ko‘ra o‘zgar-tirish va qo‘shimcha kiritish bo‘yicha davlat organi rahbariga takliflar kiritish	Zaruratga ko‘ra

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida
inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha
yo‘riqnomaga
2-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGIDA INSON RESURSLARINI REJALAShTIRISh BO‘YIChA TAShKILOT BOShQARUVI DARAJALARIDAGI TAHLILI

1-jadval. Mavjud inson resurslari tahlili

(mavjud xodimlarning son va sifat ko‘rsatkichlari)

	Savol	Muvofiqlik	Javob	Izoh
1.	Tarkibiy bo‘linmangizdagi xodimlar soni qancha?	bo‘lim*		
2.	Xodimlaringizning demografik tarkibi (yoshi, jinsi) qanday?	bo‘lim		
3.	Xodimlar amaldagi lavozimida va umuman tashkilotda necha yillik tajribaga ega?	bo‘lim va boshqarma		
4.	Xodimlarda tanqidiy ko‘nikmalar yoki malaka yetishmovchiligi mavjudmi?	barcha darajalar		
5.	Bo‘linmaning funksional vazifalarini bajarish uchun amaldagi xodimlarning malakasini oshirishga ehtiyoj bormi?	bo‘lim va boshqarma		
6.	Buni qanday amalga oshirish mumkin (trening, ustoz-shogird va h.k.)?	bo‘lim va boshqarma		
7.	Qaysi sohalarda xodimlarning yetishmovchiligi mavjud? Qaysi sohalarda ortiqcha xodimlar mavjud?	barcha darajalar		
8.	To‘liq, yarim stavka va vaqtinchalik xodimlar o‘rtasidagi muvozanat qanday? Ushbu muvozanat tarkibiy bo‘linmangizdagi joriy ishlarni bajarishga javob beradimi?	bo‘lim		

9.	Bo‘linmangizda ish yuki bilan bog‘liq muammolar bormi (masalan, ortiqcha ish yuklangan yoki kam ish yuklangan xodimlar)?	bo‘lim		
10.	O‘tgan yili sizning bo‘linmangizdan nechta odam ishdan bo‘shadi? Sababi nima?	bo‘lim va boshqarma		
11.	Hozirgi vaqtda sizning bo‘limingizda xodimlar almashinuvi qanday? Xodimlarning ixtiyoriy yoki majburiy almashinuvi tendensiyalari mavjudmi?	boshqarma		
12.	Qaysi bo‘linmada davlat organi uchun muhim bo‘lgan va iste’dodli xodimlarni yo‘qotish xavfi ko‘proq?	tashkilot darajasi		
13.	Xodimlar ketishining asosiy sabablari nima va ularni qanday bartaraf etish mumkin?	departament va tashkilot darajasi		
14.	Asosiy lavozimlar uchun vorislik (zaxira tayyorlash) rejasi bormi?	departament va tashkilot darajasi		
15.	Kerak bo‘lganda, muhim lavozimlar vakansiyasi paydo bo‘lganda uni egallash uchun tayyorlangan nomzodlar (zaxira) mavjudmi?	departament va tashkilot darajasi		
16.	Bo‘linmaga kerak bo‘lgan malaka, ko‘nikma va tajribaga ega nomzodlarni jalb qila olasizmi?	boshqarma		
17.	Hozirda bo‘sh bo‘lgan vakant lavozimlaringiz bormi? Agar shunday bo‘lsa, ushbu vakansiyalar qachondan beri ochiq? Ularni to‘ldirishda qanday qiyinchiliklar mavjud?	bo‘lim		
18.	Tashqaridan yollanganlar va ichki ko‘tarilishlar (rotatsiya)ning o‘zaro nisbati qanday?	bo‘lim		
19.	Vakant bo‘lgan lavozimlarni to‘ldirishda mavjud ichki iste’dodlardan samarali foydalanilmoqdami?	boshqarma		

20.	Agar sizda qo‘shimcha ko‘nikma, malakalarga ehtiyoj bo‘lsa, ushbu ehtiyojni o‘qitish/malaka oshirish orqali qondirish mumkin deb o‘ylaysizmi?	barcha darajalar		
21.	Ha bo‘lsa, sizda xodimlarni o‘qitishga yuborish imkoniyati bormi?	bo‘lim va boshqarma		
22.	Xodimlarni o‘qitish/malaka oshirish yoki o‘qishni/malaka oshirishni yakunlashiga to‘sqinlik qiladigan omillar mavjudmi?	bo‘lim va boshqarma		
23.	Mavjud o‘quv/malaka oshirish dasturlari tashkilotingizning strategik yo‘nalishi hamda maqsadlariga mos keladimi?	departament va tashkilot darajasi		
24.	Sizning bo‘limingizda ishlaydigan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq muammolar/qiyinchiliklarga duch kelasizmi? Ha bo‘lsa, qanday muammolar/qiyinchiliklar?	bo‘lim va boshqarma		
25.	Nechta xodim pensiya yoshiga yaqinlashmoqda hamda qaysi lavozimlarda?	boshqarma		
26.	Sizning bo‘limingizning faoliyatiga xodimlarning pensiyaga yaqinlashganining ta’siri qanday?	bo‘lim va boshqarma		

Izoh:

jadvalni har bir darajadagi rahbarlarning tahlili va tushunchasi asosida to‘ldirilishi lozim. Jadvallarni rahbarlar bo‘ysunuvidagi xodimlar bilan maslahatlashgan holda to‘ldirishi mumkin;

muvofiqlik ustuni rahbarlarga ularning darajasidagi savollarni ko‘rsatadi;

izohda har bir savolga tegishli bo‘lgan qo‘shimcha izohlar, eslatmalar uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur ustunda mazkur muammolarni qanday hal qilish mumkinligi bo‘yicha o‘z fikrlarini izoh sifatida ko‘rsatish ham mumkin;

bo‘lim deyilganda eng kichik tarkibiy tuzilma nazarda tutiladi.

2-jadval. Inson resurslariga ehtiyojni tahlil qilish
(ishchi kuchiga kelgusida bo‘ladigan ehtiyoj muassasaning strategik maqsadlari, yangi loyihalar hamda sohadagi kutilayotgan o‘zgarishlarga asoslanadi)

	Savol	Muvofiqlik	Javob	Izoh
1.	Inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojga ta’sir qiladigan rejalashtirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlar (masalan, tuzilmani qayta ko‘rib chiqish, kengaytirish, qisqarishi, qo‘shilishi) mavjudmi? Shunday holat mavjud bo‘lsa, bu o‘zgarishlar sizda mavjud bo‘lgan xodimlar soni va ularning profiliga (kasbiy ko‘nikma, tajriba va h.k.) qanday ta’sir qiladi?	departament va tashkilot darajasi		
2.	Yaqin kelajakda yangi yoki qo‘shimcha xodimlarni talab qiladigan loyihalar, dasturlar yoki tashabbuslar mavjudmi?	departament va tashkilot darajasi		
3.	Agar mavjud bo‘lsa, ular sizdagi xodimlar soni va ularning profiliga qanday ta’sir qiladi?	departament va tashkilot darajasi		
4.	Qonunchilikda, davlat siyosatida, soha bo‘yicha rivojlanish siyosatida inson resurslariga bo‘lgan talabga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar mavjudmi?	tashkilot darajasi		
5.	Agar mavjud bo‘lsa, ushbu o‘zgarishlar xodimlar/lavozimlar darajasiga yoki tasnifiga/ixtisosligiga qanday ta’sir qilishi mumkin?	tashkilot darajasi		
6.	Xodimlarda zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslaringiz bormi?	barcha darajalar		
7.	Inson resurslarini rejalashtirishga ta’sir qiladigan budjet tanqisligi yoki qo‘shimcha budjetga ehtiyoj mavjudmi?	tashkilot darajasi		
8.	Tashkilotning kelajakdagi maqsadlariga erishish uchun qanday yangi ish o‘rinlari yoki lavozimlar kerak bo‘ladi?	departament va tashkilot darajasi		

9.	Uzoq vaqt davomida kerak bo‘lmagan yoki lavozim tavsifini/ixtisosligi/profilini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan lavozimlar mavjudmi (shu jumladan, ishlab turgan xodimlar lavozimlari)?	departament va tashkilot darajasi		
10.	Yangi texnologiyalar (masalan, yangi dasturiy ta’minot, sun’iy intellekt) ma’lum ish yoki ko‘nikmalarga bo‘lgan talabga qanday ta’sir qiladi?	departament va tashkilot darajasi		
11.	Texnologiyalar muayyan ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradimi yoki yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradimi?	departament va tashkilot darajasi		
12.	Inson resurslariga bo‘lgan talabga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yangiliklar yoki innovatsiyalar mavjudmi?	departament va tashkilot darajasi		
13.	Agar mavjud bo‘lsa, bu o‘zgarishlar maqsadlar/rollar turlariga yoki talab qilinadigan xodimlar soniga qanday ta’sir qiladi?	departament va tashkilot darajasi		

Izoh:

jadvalni har bir darajadagi rahbarlarning tahlili va tushunchasi asosida to‘ldirilishi lozim. Jadvallarni rahbarlar bo‘ysunuvidagi xodimlar bilan maslahatlashgan holda to‘ldirishi mumkin;

muvofiqlik ustuni rahbarlarga ularning darajasidagi savollarni ko‘rsatadi;

izohda har bir savolga tegishli bo‘lgan qo‘shimcha izohlar, eslatmalar uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur ustunda mazkur muammolarni qanday hal qilish mumkinligi bo‘yicha o‘z fikrlarini izoh sifatida ko‘rsatish ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida
inson resurslarini rejalashtirish bo‘yicha
yo‘riqnomaga
3-ilova

TAHLILIY MA’LUMOTLARNI UMUMLAShTIRISh NATIJALARI

1. BO‘LIM DARAJASIDAGI MEHNAT RESURSLARINI TAHLILI.

Ushbu jadval tashkilot tarkibidagi bo‘limlarga tegishli mehnat resurslarini rejalashtirish ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

1-JADVAL. BO‘LIMLAR EHTIYOJLARI

Toifa	Joriy holat	Kelgusidagi ehtiyojlar	Tafovutlar tahlili	Chora-tadbirlar / tavsiyalar
Xodimlar soni				
Ko‘nikma va malakalar				
Xodimlar qo‘nimsizligi				
Malaka oshirish ehtiyojlari				
Ichki mobillik				
Lavozim uchun zaxirani rejalashtirish				
Ish yuklamasining taqsimoti				

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son, “O‘quvchi- yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Ta’lim **o‘zbek tilida** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **o‘zbek tilida** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 1a-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **rus tilida** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **rus tilida** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 2a-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh** (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) **tillarda** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayan-

ch o‘quv reja 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh** (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) **tillarda** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 3a-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh** (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) **tillarda** olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 4a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) ikki hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov) 2025-yilning 30-avgust kuniga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan barcha turdagi o‘quv rejalarni **erp.maktab.uz** yagona elektron dasturiga kiritish jarayonlarini O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) tomonidan taqdim etilgan o‘quv rejalarga muvofiq amalga oshirsin.

4. 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 3-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etilsin.

5. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) 2025-yilning 20-avgust kuniga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining mazmun-mohiyati bo‘yicha qisqa muddatli onlayn o‘quv kurslarini tashkil etsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinflarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy qilinishi munosabati bilan tashkil etiladigan qisqa muddatli o‘quv kurslarda

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirokini ta’minlash;

2025-2026-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2025-yilning 30-avgust kuniga qadar 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta’lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig‘ilishlarida targ‘ibot ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

7. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda **o‘qituvchilar o‘rtasida dars soatlarini** belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hamda ta’lim muassasalari direktorlari **shaxsan mas’ul etib belgilansin.**

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 94-son buyrug‘i 2025-yil 31-avgust kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 10-aprel,
121-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**9**	**11**	**11**	**11**	**12**	**12**	**11**	**10**	**10**	**8**	**8**	**113**
1	Ona tili	4	4	4	4	4	4	3	3	3	2	2	**37**
2	O‘qish savodxonligi	4	3	3	3								**13**
3	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	**14**
4	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**20**
5	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
6	Tarixdan hikoyalar					2							**2**
7	Qadimgi dunyo tarixi						2						**2**
8	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	**8**
9	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	**5**
10	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
11	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**6**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**68**
12	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					**35**
13	Algebra								3	3	3	3	**12**
14	Geometriya								2	2	2	2	**8**
15	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1		1	1	1	1	2	2	2	**13**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**50**
16	Fizika							2	2	2	2	2	**10**
17	Astronomiya											1	**1**
18	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
19	Biologiya							2	2	2	2	2	**10**
20	Geografiya							2	1,5	1,5	2		**7**

21	Iqtisodiy bilim asoslari							0,5	0,5			**1**
22	Tadbirkorlik asoslari										1	**1**
23	Tabiiy fanlar (Science)	1	1	1	2	2	3					**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**4**	**4**	**4**	**4**	**53**
24	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					**7**
25	Tasviriy san'at	1	1	1	1	1	1	1					**7**
26	Chizmachilik								1	1			**2**
27	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**12**
28	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**21**
29	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										2	2	**4**
Jami soat		**21**	**24**	**24**	**24**	**29**	**30**	**35**	**33**	**34**	**31**	**31**	**316**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
1a-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga
TUSHUNTIRISH XATI

I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

1. **“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi”** fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili” fani negizida 4 soat “Alifbe”, “O‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Yozuv”;

3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fanlari o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-2-3-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning

mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**9**	**11**	**11**	**11**	**12**	**12**	**11**	**10**	**10**	**8**	**8**	**113**
1	Ona tili	4	4	4	4	3	3	2	2	2	1	1	**30**
2	O‘qish savodxonligi	4	3	3	3								**13**
3	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	**14**
4	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**27**
5	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
6	Tarixdan hikoyalar					2							**2**
7	Qadimgi dunyo tarixi						2						**2**
8	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	**8**
9	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	**5**
10	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
11	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**6**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**68**
12	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					**35**
13	Algebra								3	3	3	3	**12**

14	Geometriya								2	2	2	2	**8**
15	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1		1	1	1	1	2	2	2	**13**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**50**
16	Fizika							2	2	2	2	2	**10**
17	Astronomiya											1	**1**
18	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
19	Biologiya							2	2	2	2	2	**10**
20	Geografiya							2	1,5	1,5	2		**7**
21	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			**1**
22	Tadbirkorlik asoslari											1	**1**
23	Tabiiy fanlar (Science)	1	1	1	2	2	3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**4**	**4**	**4**	**4**	**53**
24	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					**7**
25	Tasviriy san'at	1	1	1	1	1	1	1					**7**
26	Chizmachilik								*1*	*1*			**2**
27	Texnologiya	1	*1*	*1*	*1*	*2*	*2*	*2*	*1*	*1*			**12**
28	Jismoniy tarbiya	1	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	*2*	**21**
29	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										*2*	*2*	**4**
	Jami	***21***	***24***	***24***	***24***	***29***	**30**	***35***	***33***	**34**	**31**	**31**	**316**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
2a-ILOVA

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga
TUSHUNTIRISH XATI

I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

1. **“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi”** fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili” fani negizida 4 soat “Alifbe”, “O‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Yozuv”;

3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fanlari o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-2-3-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning

mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
3-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**9**	**11**	**11**	**11**	**12**	**12**	**11**	**10**	**10**	**8**	**8**	**113**
1	Ona tili va o‘qish savodxonligi	8	6	6									**20**
2	Ona tili				3	2	2	1,5	1,5	1,5	1	1	**13,5**
3	O‘qish savodxonligi				3								**3**
4	Adabiyot					2	2	1,5	1,5	1,5	1	1	**10,5**
5	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**27**
6	Rus tili		1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**10**
7	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
8	Tarixdan hikoyalar					2							**2**
9	Qadimgi dunyo tarixi						2						**2**
10	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	**8**
11	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	**5**
12	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
13	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**6**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**68**
14	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					**35**
15	Algebra								3	3	3	3	**12**
16	Geometriya								2	2	2	2	**8**

17	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1		1	1	1	1	2	2	2	**13**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**50**
18	Fizika							2	2	2	2	2	**10**
19	Astronomiya											1	**1**
20	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
21	Biologiya							2	2	2	2	2	**10**
22	Geografiya							2	1,5	1,5	2		**7**
23	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			**1**
24	Tadbirkorlik asoslari											1	**1**
25	Tabiiy fanlar (Science)	1	1	1	2	2	3						**10**
T/r	**Fan yo'nalishlari va nomlari**	**Haftalik o'quv soatlari** *(sinflar kesimida)*											**Haftalik umumiy soat**
		1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***	***7***	***8***	***9***	***10***	***11***	
V.	**Amaliy fanlar**	***4***	***5***	***5***	***5***	**6**	**6**	**6**	***4***	***4***	***4***	***4***	**53**
26	Musiqa madaniyati	*1*	*1*	*1*	*1*	1	1	1					**7**
27	Tasviriy san'at	*1*	1	*1*	*1*	1	1	1					**7**
28	Chizmachilik								*1*	*1*			**2**
29	Texnologiya	*1*	1	*1*	*1*	2	2	2	*1*	*1*			**12**
30	Jismoniy tarbiya	*1*	2	*2*	*2*	2	2	2	*2*	*2*	*2*	*2*	**21**
31	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										*2*	*2*	**4**
Jami		***21***	***24***	***24***	***24***	**29**	**30**	**35**	***33***	**34**	**31**	**31**	**316**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
3a-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga
TUSHUNTIRISH XATI

I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

1. **“Ona tili va o‘qish savodxonligi”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-3-sinflarda 6 soatdan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

4-sinfda 3 soat “Ona tili”, 3 soatdan “O‘qish savodxonligi” fani o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-2-3-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, ushbu fan dars soatlari umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
4-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari											Haftalik umumiy soat
						(sinflar kesimida)							
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**9**	**11**	**11**	**11**	**12**	**12**	**11**	**10**	**10**	**8**	**8**	**113**
1	Ona tili va o‘qish savodxonligi	8	7	7									**22**
2	Ona tili				4	3	3	2	2	2	1	1	**18**
3	O‘qish savodxonligi				3								**3**
4	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	**14**
5	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**27**
6	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
7	Tarixdan hikoyalar					2							**2**
8	Qadimgi dunyo tarixi						2						**2**
9	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	**8**
10	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	**5**
11	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
12	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**6**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**68**
13	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					**35**
14	Algebra								3	3	3	3	**12**
15	Geometriya								2	2	2	2	**8**

16	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1		1	1	1	1	2	2	2	**13**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**50**
17	Fizika							2	2	2	2	2	**10**
18	Astronomiya											1	**1**
19	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
20	Biologiya							2	2	2	2	2	**10**
21	Geografiya							2	1,5	1,5	2		**7**
22	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			**1**
23	Tadbirkorlik asoslari											1	**1**
24	Tabiiy fanlar (Science)	1	1	1	2	2	3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	***4***	***5***	***5***	***5***	**6**	**6**	**6**	***4***	***4***	***4***	***4***	**53**
25	Musiqa madaniyati	*1*	*1*	*1*	*1*	1	1	1					**7**
26	Tasviriy san'at	1	*1*	*1*	*1*	1	1	1					**7**
27	Chizmachilik								*1*	*1*			**2**
28	Texnologiya	1	*1*	*1*	*1*	2	2	2	*1*	*1*			**12**
29	Jismoniy tarbiya	1	*2*	*2*	*2*	2	2	2	*2*	*2*	*2*	*2*	**21**
30	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										*2*	*2*	**4**
Jami		***21***	***24***	***24***	***24***	**29**	**30**	**35**	***33***	**34**	**31**	**31**	**316**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-apreldagi
121-son buyrug‘iga
4a-ILOVA

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga
TUSHUNTIRISH XATI

I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

1. **“Ona tili va o’qish savodxonligi”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili va o’qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-3-sinflarda 7 soatdan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

4-sinfda 4 soat “Ona tili”, 3 soatdan “O‘qish savodxonligi” fani o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet**

tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-2-3-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

31.	18. O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tarkibidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyatini takomillashtirish.	1. O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyatini xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish. Bunda: Xalqaro ta'lim dasturlariga o'qitish mahorat markazida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari barcha professor- o'qituvchilarining malakasini oshirishni yo'lga qo'yish; malaka oshirish ta'lim dasturlarini xalqaro ta'riba asosida takomillashtirish. 2. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari professor-	2026/2027 o'quv yilidan boshlab	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev)
		o'qituvchilarining malakasini oshirish istiqbol rejasini ishlab chiqish.		
32.	19. Xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish hamda ularni ta'lim jarayoniga jalb etish.	1. Hududlardagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va ularni pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayoniga jalb etish choralarini ko'rish. 2. Ilg'or xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining malakali mutaxassislarini pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarinrng xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoniga jalb etish choralarini ko'rish.	2025-yil avgustdan boshlab 2025-yil sentabrdan boshlab	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari

33.	20. Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali soha xodimlari salohiyatini oshirib borish.	1. Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini "El-yurt umidi" jamg'armasining ta'lim dasturlari bo'yicha tanlov asosida xorijiy oliy ta'lim muassasalariga magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish tizimini yo'lga qo'yish. Bunda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun magistratura va doktoranturaga tanlovlarda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quvlar va seminarlar tashkil etishni nazarda tutish.	2026-yil sentabrdan boshlab	Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari
34.	21. Pedagogika sohasidagi ilmiy- tadqiqot ishlarini maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ilmiy muammolarga yo'naltirish.	1. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimining ilmiy muammolari bankini yaratish. 2. Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimdagi muammolar yechimiga yo'naltirish. 3. Pedagogika sohasidagi ilmiy maktablarning yutuqlari va tajribalarini ommalashtirish.	2025-yil oktabrdan boshlab	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari
35.	22. Pedagog kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari tomonidan "Scopus" va "Web of Science" xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari salmog'ini oshirish.	1. Professor-o'qituvchilar ilmiy jurnallarda maqolalar chop qilishlari uchun seminar-treninglar tashkil etish, konsultatsiya va mahorat darslarini o'tkazish. 2. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish	Har yili sentabr-oktabr Har o'quv yili yakunida	Maktabgacha va maktab Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 1-maydagi 144-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tuzilmasi bo‘yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni

T/r	Tarkibiy bo’linmalar va lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni
Rektorat		
1	Rektor	1,0
2	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	1,0
3	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor	1,0
4	Ilmiy kotib	1,0
5	Ma’naviyat va ma’rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘yicha uslubchi	1,0
6	Bosh yuriskonsult	1,0
Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi		**2,0**
7	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
8	Yetakchi mutaxassis	1,0
	jro intizomi bo‘limi	**2,0**
9	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
10	Bosh mutaxassis	1,0
Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi		**4,0**
11	Bo‘lim boshlig‘i-bosh hisobchi	1,0
12	Bosh mutaxassis	1,0
13	Yetakchi mutaxassis	1,0
O‘quv jarayonini tashkil etish bo‘limi		**4,0**
14	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
15	Bosh mutaxassis	1,0
16	Yetakchi mutaxassis	2,0

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi		**3,0**
17	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
18	Bosh mutaxassis	2,0
	O‘quv-me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo‘limi	**2,0**
19	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
20	Bosh mutaxassis	1,0
Axborot xavfsizligini ta’minlash va raqamlashtirish bo‘limi		**4,0**
21	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
22	Bosh mutaxassis	1,0
23	Yetakchi mutaxassis	2,0
Ilmiy pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘limi		**3,0**
24	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
25	Bosh mutaxassis	2,0
	Innovasion tadqiqot laboratoriyasi	**2,0**
26	Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi (bo‘limi) mudiri	1,0
27	Bosh mutaxassis	1,0
Hududlarda uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etish bo’limi		**2,0**
28	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
29	Yetakchi mutaxassis	1,0
Axborot-resurs markazi		**2,0**
30	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
31	Yetakchi mutaxassis	1,0
Ishlar bo‘limi		**2,0**
32	Ishlar boshqaruvchisi	1,0
33	Bosh mutaxassis	1,0
Jami		**37**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-apreldagi PQ-152-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PQ-152-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

a) “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasining (keyingi o‘rinlarda - loyiha) asosiy maqsadlari etib:

Islom taraqqiyot banki (keyingi o’rinlarda - ITB), Rivojlanish uchun islom birdamlik jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - RIBJ) va Ta’lim bo‘yicha global hamkorlik (keyingi o‘rinlarda - TGH) tashkilotlaridan 200,25 mln AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larni jalb qilish orqali O‘zbekistonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish;

2025-2029 yillar davomida zamonaviy standartlar asosida kamida **58 ta maktab qurish** va **72 mingdan** ziyod **qo‘shimcha o‘quv o‘rinlarini yaratish** orqali sohadagi navbatlilik koeffitsiyentini kamaytirish;

kamida **500 nafar** nogironligi bor o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim sharoitlarini yaratish;

davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim tamoyillarini joriy etish, laboratoriya mashg‘ulotlarini STEM standartlariga muvofiq tashkil qilish;

xalqaro talablar va yondashuvlar asosida **36 ming** nafar **pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini** ta’minlash, malaka oshirishning “aralash o‘qitish” modelini joriy qilish belgilanganligi;

b) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlar-

da - vazirlik) loyihani o‘z vaqtida amalga oshirish hamda muvofiqlashtirish, shuningdek, ITB va RIBJ qarzlaridan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha **mas’ul ijro etuvchi** organ ekanligi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Loyihani amalga oshirish uchun vazirlik huzurida ITB qarz va TGHning grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan **Loyihani amalga oshirish guruhi** (keyingi o‘rinlarda - LAOG) tashkil etilsin.

Bunda:

“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish guruhi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

LAOG direktorligi vazifasini bajarish va uning tarkibiga malakali mutaxassislarni tayinlash Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Komilov Temurjon Kalandarovich zimmasiga yuklatilsin;

LAOG direktori hamda koordinatoriga loyihani amalga oshirish doirasida birinchi shaxs imzosi talab etiladigan xalqaro moliya institutlariga yuboriladigan to‘lov talabnomalari, tanlov g‘oliblari bilan imzolanadigan shartnomalar, qo‘shimcha shartnomalar, to‘lov topshiriqnomalari, loyihani amalga oshirish guruhining xizmat safari bilan bog‘liq buyruqlarini imzolash (birinchi imzo qo‘yish) huquqi berilsin;

Loyihaning moliyaviy boshqaruv bo‘yicha mutaxassisiga (lavozimi bo‘yicha) loyihani amalga oshirish doirasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalariga doir hujjatlarni imzolash (ikkinchi imzo qo‘yish) huquqi berilsin;

LAOG o‘z faoliyatini Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (D. Abdumutalov) orqali amalga oshirishi hamda uning Loyiha koordinatori boshqarma boshlig‘iga hisobdor sanalishi belgilansin.

4. Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (D. Abdumutalov) bir oy muddatda loyihani amalga oshirish davrida LAOG faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha yillik xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta’minlasin.

5. “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorli-

gini oshirish” loyihasining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ishchi guruhi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ishchi guruhning har bir a’zosi tegishliligi bo‘yicha loyihaning maqsadli ko‘rsatkichlariga shaxsan mas’ul etib belgilansin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari

bir oy muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan hamkorlikda loyiha doirasida quriladigan maktablar uchun yer ajratish masalasini hal etish hamda hududiy boshqarma tasarrufiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib olish chorasini ko‘rsin.

7. Xo‘jalik bo‘limi (A. Shernazarov) LAOGni vazirlik binosiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi (D. Abdumutalov) loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni har chorak yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritib borsin.

9. Devonxona (X. Raximbayeva) o‘matilgan tartibda ushbu buyruqni markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 2-may,
146-son

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirining 2025-yil
2-maydagi 146-son buyrug‘iga
1-ILOVA

“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish guruhi TARKIBI

T/r	Lavozimi	Shtat birliklari soni
1.	Loyiha menejeri	1 ta shtat
2.	Loyiha menejeri o‘rinbosari - bosh muhandis	1 ta shtat
3.	Loyiha komponentlari koordinatori - Loyihani monitoring qilish va baholash bo‘yicha mutaxassis	1 ta shtat
4.	Moliyaviy boshqaruv bo‘yicha mutaxassis - hisobchi	1 ta shtat
5.	Xarid bo‘yicha mutaxassis	1 ta shtat
6.	Quruvchi muhandis	4 ta shtat
7.	Ta’lim bo‘yicha mutaxassis	1 ta shtat
8.	Yurist	1 ta shtat
9.	Atrof-muhit va ijtimoiy muhofaza bo‘yicha mutaxassis	1 ta shtat
10.	Tarjimon-referent	1 ta shtat

Jami shtatlar soni 13 ta.

Izoh: Xalqaro va mahalliy mutaxassislarga loyihalar doirasida ehtiyoj bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qaror talablari asosida shartnoma orqali jalb qilinishi mumkin va ular umumiy shtat birliklariga kiritilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirining 2025-yil
2-maydagi 146-son buyrug‘iga
2-ILOVA

“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ishchi guruhi
TARKIBI

1.	Sh. Karimov	—	Vazirning birinchi o‘rinbosari — ishchi guruh rahbari
2.	T. Komilov	—	Vazir o‘rinbosari — ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	F. Boqiyev	—	Vazir o‘rinbosari
4.	S. Radjabov	—	Vazir o‘rinbosari
5.	D. Abdumutalov	—	Xorijiy investitsiyalar va grant loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
6.	F. Kushnazarov	—	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti direktori
7.	H. O‘rinov	—	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o‘rinbosari
8.	O. Raxmatillayev	—	Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
9.	I. Siradjev	—	Moliya-iqtisod departamenti direktori
10.	E. Murodov	—	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
11.	M. Yuldashev	—	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
12.	D. Norboyeva	—	O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i
13.	R. To‘rayev	—	Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars beradigan pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 13-dekabr kuni 2024-yilda ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2025-yilning 15-mayidan boshlab inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars beradigan pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida onlayn o‘quv kurslari tashkil qilinsin.

2. Quyidagilar:

Inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari uchun maqsadli malaka oshirish kursining o‘quv reja va dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Inklyuziv ta’lim guruhlari tashkil etiladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari uchun malaka oshirish kursining o‘quv reja va dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova)ga:

bir hafta muddatda inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars mashg‘ulotlari o‘tadigan pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash onlayn o‘quv kurslari uchun kontentlarni ishlab chiqish*;*

onlinedu.uz onlayn platforma orqali inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars mashg‘ulotlari o‘tadigan pedagoglar uchun 18 soatlik qisqa muddatli malaka oshirish o‘quv kurslarini tashkil qilish;

joriy yilning 20-may kuniga qadar o‘quv kurslari yakuni bo‘yicha vazirlikka ma’lumot taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari joriy yilning 15-20-may kunlari inklyuziv ta’lim guruhlari va sinflarida dars mashg‘ulotlari o‘tadigan pedagoglarning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirokini ta’minlasin.

5. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, tegishli tizim tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 7-may,
147-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 7-maydagi
147-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari uchun maqsadli malaka oshirish kursining o‘quv
REJA VA DASTURI

Toshkent – 2025

Kirish

Inklyuziv ta'limni joriy qilish jahonning rivojlangan davlatlari shuningdek, O'zbekistonda ham huquqiy-normativ hujjatlar asosida mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabr kuni 638-sonli qarori ishlab chiqildi. Undan tashqari "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-sonli, "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5255-sonli qarorlari qabul qilindi. Ta'lim sohasiga kirib kelgan bu yo'nalishni joriy etish asta sekinlik bilan qonuniy asosda amalga oshirilmoqda. Bu esa respublikamizning ta'lim tizimini rivojlantirishdagi oqilona va izchil yo'l tutish hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi belgilangan.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. ***O'zbekiston***

Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni 20-modda.

Inklyuziv ta'lim "Ta'lim barcha uchun" ta'limi sifatida har bir bolaning, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim ehtiyojlarining xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda har bir ta'lim muassasasining barcha bolalar uchun (psixologik, jismoniy, pedagogik) qo'llab-quvvatlovchi rivojlanishi uchun "qulay" ta'lim maydonini yaratish ko'zda tutadi.

Eng quvonarlisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ham inklyuziv ta'limning kiritilishi yanada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun berilayotgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Bunday ta'lim tizimida inklyuziv maydonini tashkil etish, uni yaratish bo'yicha ishlar ta'limning ijtimoiy institut sifatida funksiyalarini tushunish va o'zgartirishlar bilan bog'liq bo'ladi. U jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida tarkibiy o'zgarish imkoniyatlari jihatidan har xil, ammo bolalar guruhlari uchun standart sharoitlarda ta'limning (namunaviy o'quv rejasi, standart o'quv uslubiy ta'minoti, o'quv faoliyatining standart sur'ati) bir xil modellarini yaratilishi ko'zda tutiladi.

Inklyuziv ta'lim muhitining konseptual asoslari maxsus va asosiy ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Ushbu konseptual asoslar:

- ta'limning maqsad va vazifalari, qadriyatlari (ta'limning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy-moslashuv funksiyalari);
- har bir bola shaxsining qadr-qiymati, uning ijtimoiy hamjamiyatdagi va ta'lim sohasidagi o'rni, inklyuziv ta'lim tamoyillari, inklyuziv ta'lim muassasasining siyosati va madaniyati, har birining xususiyatlariga va ta'lim ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini taklif qiladi;
- har bir bolaning xususiyatlariga mos keladigan (psixologik, jismoniy, pedagogik, ijtimoiy) ta'lim muhitini yaratish;
- o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuni, uning funksiyalari (guruhdagi, sinfdagi) har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlash texnologiyalari va usullari berish;
- bolalar jamoasidagi muloqot va o'zaro aloqalarni tashkil etish;
- ta'lim jarayonidagi bolani kuzatib borishda barcha ishtirokchilar bilan o'zaro munosabatlar: bular psixolog, maxsus o'qituvchi, ijtimoiy o'qituvchi va boshqalar faol ishtiroki;

- bolalar ota-onalarining roli va mavqei, inklyuziv ta'lim muhitidagi barcha ishtirokchilarning ijtimoiy sherikligi va boshqalar.

Interfaol metodlar asosida tashkil qilingan o'quv-amaliy seminarning mazmuni inklyuziv ta'lim muhitida ishtirokchilarning nazariy, ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy vakolatlarini shakllantirishni, shuningdek, barcha ishtirokchilar uchun ta'lim natijalarining sifatini ta'minlashga qaratilgan vazifalar tizimini chuqurroq o'rganish va tushunishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili;
3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili;
4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili;
5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili;
6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili;
7) Malakaviylik tamoyili.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi: Tinglovchilarni ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi bilan xabardor qilish, inklyuziv ta'lim haqida umumiy tushuncha va turlari, uning maqsadi, mohiyati, imkoniyatlari, ijtimoiy ahamiyati haqida tushuncha hosil qilish hamda ushbu ta'limni sifatli tashkil etish, maqsadli rivojlantirish yo'llarini ochib berish. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyani tashkil etish yuzasidan normativ hujjatlar bilan tanishtirish va inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni saralashda qo'llaniladigan metodlar haqida batafsil ma'lumotlar berishdir.

Kursning asosiy vazifalari:

- inklyuziv ta'limning normativ-huquqiy asoslari hamda inklyuziv, boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish;
- nogironlik, inklyuziv ta'lim falsafasi bilan tanishtirish;
- o'qituvchi - inklyuziv ta'limi drayveri;
- inklyuziv ta'lim jarayoni ishtirokchilari va aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, ularga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- fanlarni birlashtirib o'qitish natijasida alohida ta'lim ehtiyojlari

bo‘lgan bolalar bilim darajasini oshirish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish;

- dars jarayonida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga maxsus yondashuvi ustida ishlash;

- inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiylashuv motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy hayotga qo‘shish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni shaxsiy individual rejasini tuzish uchun o‘quvchining asl holatini baholash;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni shaxsiy individual rejasini tuzish;

- inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinf o‘quvchilar ta’limida o‘qituvchi va o‘quvchi akademik - ijtimoiy marshruti;

- O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim amaliyotining natijalari;

Kurs bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

Tinglovchilar inklyuziv ta’limning mohiyati, mazmuni, ta’lim bo‘yicha milliy va jahon tajribalari namunalarini, huquqiy-me’yoriy asoslari, alohida ehtiyojli bolalar uchun ta’lim jarayonini tashkil etish mexanizmi, inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining vazifalarini, samarali tashkil etishni ta’minlovchi omillarni, inklyuziv ta’limning ijtimoiy ahamiyatini ***bilishi va amaliyotda qo‘llay olishi kerak.***

Inklyuziv ta’limga oid milliy va xalqaro hujjatlarning nomi va xronologik jadvalini, inklyuziv ta’limning mazmuni, olib borish uslubiyati, o‘quv metodik ta’minotini (berilgan metodikalardan korreksion yo‘nalishlar asosida foydalanish), yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llaniladigan maxsus texnik vositalar, usullar, yondashuvlarni, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning maxsus ehtiyojlarini baholashni, ta’lim muassasalarini inklyuziv ta’lim mezonlari bo‘yicha baholashni, inklyuziv ta’lim ishtirokchilari, ularning vazifalari va hamkorlik faoliyatini, inklyuziv ta’limning samaradorligini monitoring qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.***

Inklyuziv ta’limga ta’rif berish, yaqin va uzoq kelajak uchun jarayonida o‘z ishtirokining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta’lim jarayonida, darslarda qo‘llaydigan usullar, inter-

faol, ijodiy, hamkorlik dars ishlanmalari ishlab chiqish, inklyuziv sharoitda (maxsus ehtiyojlardan kelib chiqqan holda) ta'limni olib borish uchun zarur yondashuvlar va sharoitni ishlab chiqish, inklyuziv ta'limni samarali olib borish, mustahkamlash va rivojlantirish rejasini tuzish, inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyatga sari shiori ostida o‘z komandasini tuzish yo‘llarini ishlab chiqish ***malakalariga ega bo‘lishi lozim.***

Kursning ta'limdagi o‘rni

Inklyuziv hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinf o‘qituvchilari, maktab psixologlari va direktorlar alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumta'lim maktabida ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar, ijobiy psixologik muhit yaratish bo‘yicha kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar. Bundan tashqari butun maktab tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga mehr-shafqat va muhabbat hissi shakllanadi.

Kursni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Inklyuziv hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinf o‘qituvchilari, maktab psixologlari va direktorlar dasturda ko‘rsatilgan mavzularni o‘rganish davomida zamonaviy ta'lim, axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, o‘quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot topshiriqlari, mustaqil ta'lim shakllari hamda innovatsion ta'lim klasteri muhitida amaliyotchi o‘qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlanadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari uchun maqsadli malaka oshirish kursining o‘quv mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular	Jami soat	Shundan		
			Ma’ruza	Seminar	Amaliy
1.	Nogironlik nima? Inklyuziv ta’lim falsafasi. Tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o‘tish.	2	2		
2.	O‘qituvchi – inklyuziv ta’lim drayveri (7)	2	2		
3.	O‘qituvchining – inklyuziv kompetentligi (9)	2	2		
4.	Inklyuziv ta’limda to‘siqsiz muhitni yaratishning usul va yo‘llari (11)	2	2		
5.	Inklyuziv ta’limda maxsus o‘qituvchi faoliyati va korreksion xonani jihozlanishi (12)	2	2		
6	Intellektida va ruhiy rivojlanishida, ko‘rishda, eshitishda, tayanch-harakat a‘zolarida, muammolari bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim ehtiyojlari va ular bilan ishlashning adaptiv yondashuvlari (13-,14-,15-,16-ilovalar)	4	2		2
7.	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning individual rivojlanish rejasini tuzish (17)	2			2
8.	Inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etish va amalga oshirishning o‘ziga xosligi (21)	2		2	
	Jami:	**18**	**12**	**2**	**4**

Inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari uchun maqsadli malaka oshirish kursining o‘quv dasturi

1. Nogironlik nima? Inklyuziv ta’lim falsafasi Tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o‘tish. **(2 soat ma’ruza).**

Butun dunyo hamjamiyati tomonidan nogironlik to‘g‘risida berilgan ta’riflar yoritib beriladi. Undan tashqari Yaponiya davlati misolida inklyuziv ta’lim falsafasi ochib berilib hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtiriladi.

2. O‘qituvchi - inklyuziv ta’lim drayveri (2 soat ma’ruza).

Inklyuziv hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinf o‘qituvchisini ta’limdagi tutgan o‘rni hamda jarayondagi harakat trayektoriyasi ochib beriladi. Inklyuziv ta’limga jalb qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni bilan aloqaga kirishish usullari ko‘rsatib beriladi.

3. O‘qituvchining – inklyuziv kompe**tentligi (2 soat ma’ruza).**

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi va individualligi haqida ma’lumot va tushunchalar beriladi.

4. Inklyuziv ta’limda to‘siqsiz muhitni yaratishning usul va yo‘llari (2 soat ma’ruza).

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim muassasalarida to‘siqsiz ta’lim olishlari uchun yaratiladigan sharoitlar, panduslarni bo‘lishi, taktil yo‘lakchalarini qilinishi va boshqa sharoitlarni yaratilishi va ularning muhimligi haqida ma’lumot berish.

5. Inklyuziv ta’limda maxsus o‘qituvchi faoliyati va korreksion xonani jihozlanishi (2 soat ma’ruza).

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda maktabdagi maxsus-o‘qituvchining asosiy faoliyati va ular bilan darsdan tashqari korreksion mashg‘ulotlarni olib borish uchun xonani tashkil etish va jihozlanishi haqida ma’lumot berish.

6. Intellektida va ruhiy rivojlanishida, ko‘rishda, eshitishda, tayanch-harakat a‘zolarida, muammolari bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim ehtiyojlari va ular bilan ishlashning adaptiv yondashuvlari (4 soat ma’ruza).

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan eshitishda (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar), ruhiy va aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan, autistik spektri buzilgan, ko‘rishida muammosi bo‘lgan (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar) bolalarning psixologik xususiyatlari bo‘yicha atroflicha ma’lumotlar beriladi.

7. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning individual rivojlanish rejasini tuzish (2 soat amaliy).

Yaponiya tajribasidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan

o‘quvchining asl holatini baholash uchun har birning shaxsiy qiziqishi va xususiyatlari inobatga olinadi. Undan tashqari ularni dars jarayonidagi ishtirokidagi tortib uydan qanday kayfiyatda kelganligi ham inobatga olinib, keyin asl holati baholanib, shaxsiy individual reja tuzish tushuntiriladi.

8. Inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etish va amalga oshirishning o‘ziga xosligi (2 soat seminar).

Ta’lim va tarbiya ishlarini olib borish asosan korreksiyalashga qaratilganligi, individual yondashuvga asoslanishidir. Bolaning shaxsiy xususiyatlarini yuqori darajaga qo‘yish, dars jarayonini tabiiy ko‘rgazmali qurollar bilan tashkil qilish, darsni rag‘batlantirish asosida tashkil qilish yuzasidan ma’lumotlar beriladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchilar mustaqil o‘qishi uchun inklyuziv ta’lim, maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya), maxsus psixologiyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik, o‘quv qo‘llanmalar, tavsiyalar hamda tarqatma materiallardan mavzularini o‘rganish hamda bilimlarni mustahkamlash;
- maxsus adabiyotlar asosida inklyuziv ta’lim yo‘nalishlari ustida ishlash;
- inklyuziv ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish metodidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari o‘rganish;
- nazariy amaliy va seminar mashg‘ulotlar o‘tish davomida tinglovchilarni ijodiy jarayonga yo‘naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o‘rgatish, mashqlar bajarish.
- o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va ishlab chiqilgan materiallar to‘plamlarini o‘qish;
- inklyuziv ta’lim tashkil qilingandan boshlab shu sohada faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilari bilan suhbatlashish va ochiq darslarini kuzatish.

Tinglovchilarni mustaqil o‘qib o‘rganishlari uchun taxminiy mavzular

1. Nogironlik va inklyuziv ta’lim falsafasi haqidagi manbalar.
2. Inklyuziv ta’limga oid normativ-huquqiy asoslari hujjatlar.
3. Alohida ehtiyojli bolalar va ularning tasnifi.
4. Aqliy, ruhiy rivojlanishida, autistik sferasida muammolari bo‘lgan bolalar va ulardagi o‘ziga xos xususiyatlar.
5. Ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar va ularning tasnifi, ularga ta’lim berishdagi korreksion yondashuvlar.
6. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar va ularning tasnifi.
7. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar ta’limidagi o‘ziga xos yondashuv va usullar.

8. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalar.

10. Autistik sferasida muammolari bo‘lgan bolalar ta’limidagi maxsus korreksion fanlar, ularning mazmuni.

11. Alohida ehtiyojli bolalarda jismoniy va ruhiy muammolarning kelib chiqish sabablari.

12. Harakat muvozanatida muammolari bo‘lgan bolalar va ularda uchraydigan qo‘shimcha muammolar.

13. Inklyuziv sinflari bo‘lgan maktablarda psixologik xizmatning o‘ziga xosligi.

14. Inklyuziv ta’lim ishtirokchilari va ularning hamkorlik faoliyati.

15. Inklyuziv sinf o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.

16. Sinfda ijobiy psixologik muhitni yaratish omillari.

17. Ta’lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish yo‘llari.

18. Pedagog mutaxassisning faoliyati (tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog).

19. Alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olish huquqi aks ettirilgan qonunlar va qarorlar, ularning bolalar hayotida tutgan o‘rni.

20. O‘zbekistonda “Bola huquqlarini kafolatlash haqida”gi qonunlarining mazmun mohiyati.

21. Boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar, ularning inklyuziv sinflardan farqi.

22. Inklyuziv sinflarda darslarning rejalashtirilishida maxsus pedagogning tutgan o‘rni.

23. Korreksion sinflarda ta’limning mazmuni va olib borish uslublaridagi o‘ziga xosligi.

24. Maxsus pedagoglarning vazifalari, olib boradigan maxsus korreksion ishlari.

25. Tyutorlar, ularning vazifalari.

26. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha mavjud xorijiy tajribalar va boshqa shu kabi mavzular tavsiya etiladi.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-ok-

tabr kuni “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi №-638-sonli qarori.

5. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya – Parij. 1989-yil.

6. “Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi” Parij.1949-yil.

7. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

8. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel

9. F.F.Rau, N.F.Slezina “Metodika obucheniya gluxix proiznosheniyu”, Moskva-1990.

10. Umumta’lim darsliklari Toshkent 2021-yil.

11. O‘qituvchilar uchun metodika (barcha fanlar kesimida) yangi nashr, Toshkent 2021-yil.

12 “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2022.

2. L.Mo‘minova, D.Nazarova, “Maxsus ta’lim atamalarining izohli lug‘ati”, Toshkent-2010.

3. E.I.Leongard, “Ya ne xochu molchat!” uchebnoe posobie, Moskva-1990.

4. V.V.Lapshin, B.P.Puzanov, “Osnovы defektologii” uchebnoe posobie, Moskva-1990.

5. Inklyuziv ta’lim muassasalarida zaif eshituvchi bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etish texnologiyalari. “Complex print” nashriyoti Toshkent 2020-yil.

6. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2022.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz;
2. www.vashpsixolog.ru;
3. www.klex.ru;
4. www.window.edu.ru;
5. https://eduportal.uz;
6. www.info-tashxis.uz;
7. http://rcsad.uz

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Hilola UMAROVA, E'zozxon KARIMOVA, Risboy JO'RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ulug'bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO'MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Jamilaxon ASQAROVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70

Jurnal O'zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro'yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to'liq, o'zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog'oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© "Xalq ta'limi axborotnomasi", 2025.